XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2022 - yil 5 - iyul VI-45-131-8-108-K/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida"gi O'RQ-303-son qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022- yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi raisi A.Djumayevning tumandagi ayrim Geografik ob'ektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi doimiy komissiyaga bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman komissiyasining 2021-yil 29-noyabrdagi 01-10/592-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2022-yil 17-iyundagi 18-01/156-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Tuman bo‘yicha berilgan jami 11 ta georgafik obyektlar (nomsiz ko‘chalar) mahallalar kesimida nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud 11 ta geografik obyektlar (nomsiz ko‘chalar)ning nomlash bo‘yicha berilgan takliflar Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, tasdiqlash maqsadida

xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida davlat reestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman
Kengashining
2022 yil 5 iyuldagi
VI-45-131-8-108-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha berilgan nomlarni Respublika Kadastr agentlgi tomonidan ekspertizadan o‘tkazish maqsadida berilgan takliflar ro‘yxati

№	Gegrafik obeyktning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh:
1	2	3	4	5	6
1.	Ko‘cha	“ Gulhovuz” MFY	Nomsiz	Vaxshivorsoy	Ushbu hududda Vaxshvorsoyning mavjud ekanligi sababli ushbu nom taklifi berildi.
2	Ko‘cha	“ Gulhovuz” MFY	Nomsiz	Obodlik	Ushbu hududda ko‘plab obod qurilish jarayonlari olib borilayotganligi sababli yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
3	Ko‘cha	“ Gulhovuz” MFY	Nomsiz	Adirsoy	Hudud asosan adirlik va soylikdan iborat bo‘lgani uchun shu nom taklifi berildi.
4	Ko‘cha	“ Guliston” MFY	Nomsiz	Yashnobod	Ushbu ko‘cha yashillik ufurib, go‘zallik kasb etib, obod oshiyonday ko‘ringani uchun uchun ushbu nom taklifi berildi
5	Ko‘cha	“ Yangiobod” MFY	Nomsiz	Murodbaxsh	Ushbu hududda ko‘plab to‘y va hashamlar, murodbaxsh lahzalarning serobligi, ko‘p bo‘lishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
6	Ko‘cha	“ Yangiobod” MFY	Nomsiz	Mirobod	Toshkentning Mirobod tumaniga havas qilininb, Mirobod nomi, shu nom taklifi berildi.
7	Ko‘cha	“ Yangiobod” MFY	Nomsiz	Yangi avlod	Yangi O‘zbekistonimizning yangi avlodlariga hamohang tarzda shu nom taklifi berildi.
8	Ko‘cha	“ Yangiobod” MFY	Nomsiz	Sog‘lom hayot	Ushbu hududda sog‘lom hayot targ‘ibotchilari ko‘p bo‘lishi yaxshi niyat qilinib, ushbu nom taklifi berildi.
9	Ko‘cha	“ Yangiobod” MFY	Nomsiz	Jomiy	Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad- fors-tojik shoiri, naqshbandiylik tariqatining yirik vakili. Jomiyning ota-bobolari asli Dashtdan bo‘lib, Jomda, keyinchalik Hirotda hayot kechirishgan. Jomiy Madrasa yoshidan ancha erta Hirotdagi „Dilkash“ (Navoiy ma’lumotiga ko‘ra, „Nizomiya“) madrasasiga kirib, o‘z davrining taniqli til, adabiyot olimlari va mudarrislari qo‘lida tahsil olgan.

№	Gegrafik obeyktning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh:
10	**Ko‘cha**	“ Yangiobod” MFY	Nomsiz	Suvzar	Suvning oltindek qimmatbaho ekanligi sharafiga ushbu nom taklifi berildi.
11	**Ko‘cha**	“ Yangiobod” MFY	Nomsiz	Yosh avlod	Ushbu hududda ko‘plab yosh avlodlar istiqomat qilishi sababli ushbu nom taklifi berildi.